

**AKADEMIK S.Y. YUNUSOV NOMIDAGI O‘SIMLIK MODDALARI
KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

QADIROVA DILFUZA BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDA O‘SUVCHI *CONVOLVULUS* TURKUM
O‘SIMLIKLARINING ALKALOIDLARI, KONVOLVINING YANGI
HOSILALARI SINTEZI**

02.00.10-Bioorganik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

QADIROVA DILFUZA BAXTIYOROVNA

О‘zbekistonda о‘suvchi *Convolvulus* turkum о‘simliklarining alkaloidlari, konvolvinning yangi hosilalarini sintezi.....**3**

Кадирова Дилфуза Бахтиёровна

Алкалоиды растений рода *Convolvulus*, произрастающих в Узбекистане, синтезы новых производных конвольвина.....**21**

Kadirova Dilfuza Baxtiyorovna

Alkaloids of plants of the genus *Convolvulus* growing in Uzbekistan, syntheses of new convolvin derivatives.....**41**

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....**45**



**AKADEMIK S.Y. YUNUSOV NOMIDAGI O‘SIMLIK MODDALARI
KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 02/30.01.2020. K/T.104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

QADIROVA DILFUZA BAXTIYOROVNA

**O‘ZBEKISTONDA O‘SUVCHI *CONVOLVULUS* TURKUM
O‘SIMLIKLARINING ALKALOIDLARI, KONVOLVINING YANGI
HOSILALARI SINTEZI**

02.00.10-Bioorganik kimyo

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K787 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Akademik S.Y. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.uzicps.uz) va “Ziyonet” Axborot – ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aripova Salimakhon Fazilovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ramazanov Nurmurod Sheralievich
kimyo fanlari doktori, professor

Abdulladjanova Nodira G‘ulomjanovna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc. 02.30.01.2020. K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «10»_dekabr soat 12.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel. 71 262-59-13, faks (99871) 262-73-48, e-mail: plant_inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel. 71 262-59-13, faks (99871) 262-73-48), e-mail: khidirova56@inbox.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh. Sagdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., akademik

N.K. Xidirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, k.f.n.,
katta ilmiy xodim

E.X. Botirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma'lumki, jahonda farmatsevtika bozoridagi ulushi tobora ortib borayotgan dorivor fitopreparatlarga qiziqish kuchaymoqda. O'simlik preparatlariga bo'lgan qiziqishning ortishi farmakologik faollikning keng doirada ekanligi, minimal toksikligi va surunkali kasalliklarni davolash uchun ulardan uzoq muddatli foydalanish imkoniyati borligi bilan bog'liq. Markaziy Osiyo hududi qayta tiklanadigan dorivor xom ashyo manbai bo'lib, uning arsenalida samarali dorilar sifatida tibbiyotda keng qo'llanilayotgan tropan va pirrolidin alkaloidlari manbai – Convolvulaceae oilasining o'simliklari alohida o'rin tutadi. O'zbekiston florasida o'simlik dunyosiga boy va shu munosabat bilan mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirish uchun zamin yaratilmoqda, bu nafaqat dori-darmon tanqisligini to'ldirish, balki yangi, ekologik toza va noyob, eksportga yo'naltirilgan dori vositalarini ishlab chiqarishga ham hissa qo'shish imkonini beradi.

Hozirgi kundagi tropan sinfi alkaloidlarning ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talab qilinadigan biologik xususiyatlarga ega bo'lgan ushbu sinfnin ko'plab alkaloidlari hali ham amaliy tibbiyotda samarali dori sifatida keng qo'llaniladi. Masalan, xolinolitik va spazmolitik xususiyatlarga ega giostsiamin, skopolamin, atropin alkaloidlari nevrologiya, jarrohlik va ko'z kasalliklarida keng qo'llaniladi, kokain – eng kuchli anestetikdir. Shu munosabat bilan biologik faol birikmalar ishlab chiqaradigan o'simliklarni kimyoviy o'rganish fitokimyo va bioorganik kimyo sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "...ozuq-ovqat va noozuq-ovqat mahsulotlari bozoriga taklifni oshirish va mavsumiy taqchilikni bartaraf etishning muhim vazifalari belgilab berilgan. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida mahalliy o'simlik xom ashyosi asosida yangi va import o'rnini bosuvchi dori vositalarini yaratish va rivojlantirishga bag'ishlangan qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zR Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670 sonli "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi qarori va O'zR Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"² gi PF-55-son Farmoni va mazkur sohaning tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670 sonli qarori.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55 son farmoni.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” va VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Tropan alkaloidlarini ishlab chiqaruvchi o‘simliklarning fitokimyoviy tadqiqotlari bilan xorijiy mamlakatlarning yetakchi mutaxassislari R.H.F. Manske, Samson Afewerki, Jia-Xin Wang, Wei-Wei Liao, Armando Córdova, G. Fodor, R. Dharanipragada, J. Parello, P. Longevialle, W. Vetter, J. A. Mc Closkey, N. A. Azman, M. G. Gallego, L. Julia, L. Fajari, M. Almajano, MDH mamlakatlarda – A. P. Orexov, R. A. Konovalova, G. V. Lazurevskiy, N. V. Plexanova shug‘ullanishgan. O‘zbekistonda ushbu turdagi o‘simliklarning kimyoviy tarkibini S. Y. Yunusov, V. M. Malikov, S. F. Aripova, R. T. Mirzamatov, K. L. Lutfullin, E. G. Sharova, A. M. Gapparov va boshqalar o‘rganganlar. Natijada, Convolvulaceae oilasi vakillari katta miqdorda biologik faol alkaloidlarni hosil qilishi aniqlandi.

Convolvulus turkumiga mansub o‘simliklar dunyoda 180-190 turni, MDH florasida 30 dan ortiq turni tashkil etadi va Markaziy Osiyo mintaqasida 18 ta turi o‘sadi. Convolvulaceae oilasining *Convolvulus* turkumiga mansub o‘simliklarining aksariyati tropan alkaloidlarining boy manbai hisoblanadi. Qozog‘istonda o‘sadigan bu turkumning ayrim vakillarida (*C. subhirsutus*, *C. pseudocanthabrica*) o‘simlikning ma’lum o‘sish davrlarida umumiy alkaloidlarining miqdori 0.6 dan 4.0% gacha bo‘ladi. Ushbu o‘simlik turlarida tarkibi jihatidan ikkita asosiy alkaloid mavjud: konvolvin va uning N-metil hosilasi – konvolamin. Ushbu ikkita alkaloid aralashmasining jami o‘simlikdagi miqdori 70-90% gacha etadi va ular amalda kam qo‘llanilgan. Ushbu ilmiy ishda O‘zbekistonda o‘sadigan *Convolvulus* turkumiga mansub yetarlicha o‘rganilmagan ayrim o‘simliklarning kimyoviy tarkibi bo‘yicha tadqiqotlar keltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining ilmiy ish bajarilgan muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O‘zR Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-F-7-005 raqamli “O‘zbekistonning alkaloid saqlovchi o‘simliklarining tadqiqotlari asosida biologik faol substansiyalar yaratishning fundamental asoslari” fundamental (2017-2019 yy.) va (FA-A-12-T-104) raqamli “Katatsin antigipoksik preparati va konsubin antimikrob preparatini ishlab chiqish va tibbiy amaliyotga joriy etish” amaliy (2012-2014 yy.) loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda o‘sadigan *Convolvulus* turkumiga mansub *C. subhirsutus*, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolcovii* va *C. arvensis* o‘simliklarning alkaloidlarini tadqiq qilish, o‘simlikdagi alkaloidlar yig‘indisi va asosiy maqsadli alkaloidlarni ajratib olish usullarini ishlab chiqish,

yuqori fiziologik faollikka ega moddalarni izlash maqsadida ular asosida bir qator sintezlarni amalga oshirish va ularni biologik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

Convolvulus subhirsutus, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolkovii* va *C. arvensis* oʻsimliklarini ekstraksiya qilish, olingan ekstraktlardan alkaloidlar yigʻindilarini va ularan individual moddalarni ajratib olish;

C. subhirsutus, *C. krauseanus* istiqbolli oʻsimliklarining yer ustki qismi va ildizlaridan alkaloidlar yigʻindisi va individual maqsadli alkaloidlarni olish usullarini optimallashtirish;

C. subhirsutus alkaloidlari yigʻindisidan asosiy alkaloidi – konvolvinni ajratib olish usulini ishlab chiqish;

C. subhirsutus alkaloidlari yigʻindisidan ajratib olingan konvolvin alkaloidi asosida modifikatsiya ishlarini amalga oshirish va sintez qilingan birikmalarning tuzilishini aniqlash;

sintezlangan birikmalarning biologik faolligini baholash.

Tadqiqotning obʻyektlari Oʻzbekistonda oʻsadigan *Convolvulus subhirsutus*, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolkovii* va *C. arvensis* oʻsimliklarining yer ustki qismi va ildizlari.

Tadqiqotning predmeti yuqorida koʻrsatilgan oʻsimliklardan ajratib olingan alkaloidlar, ularning sintetik hosilalari, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari, shuningdek, ekstraktlar va individual alkaloidlarning biologik faolliklari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda birikmalarni ajratib olish va tozalashning quyidagi usullaridan foydalanilgan: ekstraksiya, ustunli va yupqa qatlamli xromatografiya, qayta kristallash; ajratib olingan moddalarning tuzilishini isbotlash usullari (IQ, ^1H , ^{13}C YaMR spektroskopiyasi va rentgen tuzilish tahlili (RTT), xromatomass-, mass-spektrometriya va alkaloidlar asosida organik birikmalar sintezining klassik usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston florasining Convolvulaceae oilasi, *Convolvulus* turkumiga mansub, 6 ta kam oʻrganilgan *Convolvulus subhirsutus*, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolkovii* va *C. arvensis* oʻsimlik turlarining alkaloidlari tadqiq qilingan. Kimyoviy tadqiqotlar natijasida oʻrganilgan oʻsimliklarning yer ustki qismi va ildizlaridan oldin adabiyotlarda maʼlum boʻlgan 8 ta tropan va pirrolidin alkaloidlari ajratib olingan;

mahalliy *C. fruticosus* oʻsimligining geksanli ekstraktining xromato-mass spektral tahliliga koʻra, ilk bor 14 ta birikma identifikatsiya qilindi, ularning asosiy komponenti tropan alkaloidi – tropin, shuningdek, siromazin birikmasi *C. fruticosus* oʻsimligida birinchi marta aniqlangan;

ilk bor *Convolvulus subhirsutus* oʻsimligining yer ustki qismi va ildizlaridan alkaloidlarini ajratib olishning maqbul usulini ishlab chiqish uchun turli xil ekstraksiya usullari yordamida tajribalar oʻtkazildi: xona haroratida ushlab turish (matseratsiya), isitish, Sokslet apparatida, ultratovush va mikrotoʻlqinli usullari ishlab chiqilgan va optimal mikrotoʻlqinli usulning afzalligi koʻrsatilgan;

birinchi marta konvolvin alkaloidining qo‘shimcha manbai bo‘lgan *Convolvulus krauseanus* o‘simligining yer ustki qismi va ildizlari uchun *C. subhirsutus*ga o‘xshash tadqiqotlar o‘tkazildi va bu o‘simlikdan ham alkaloidlarni ajratish uchun optimal mikroto‘lqinli usul ishlab chiqilgan;

mahalliy *C. subhirsutus* o‘simligidan asosiy va maqsadli alkaloid konvolvinni olishning optimal usuli ishlab chiqilgan;

ilk bor konvolvin alkaloidi asosida 20 ta yangi birikma sintez qilingan, ularning tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan isbotlangan (IQ, mass-, ^1H , ^{13}C YaMR spektroskopiyasi) va ba‘zilarining fazoviy tuzilishi rentgen tuzilish tahlili asosida aniqlangan;

ajratib olingan alkaloidlar va ular asosida birinchi marta sintez qilingan yangi hosilalarning biologik tadqiqotlari o‘tkazilgan va ular orasida yuqori biologik faollikka ega birikmalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konvolvin alkaloidining sintetik hosilasi N-benzil konvolvin sitotoksik faolligi bo‘yicha, ya‘ni sisplatin-standart darajasida ta‘sir ko‘rsatadi, ammo zaharliligi kam, shuningdek, konvolvinning alkil hosilalari va *Convolvulus* turidagi o‘simlik alkaloidlarining bachadon bo‘yni saratoni hujayralari HeLa va halqum HEp-2 shtammlariga qarshi faolligi topilgan;

C. subhirsutus va *C. krauseanus* o‘simliklari ikkita alkaloidining tabiiy aralashmasi – konvolvin va konvolamin 1:2 nisbatda kuyishga qarshi 5%-li “Konvolvin va konvolamin aralashmasi linimenti” istiqbolli dori vositasi substansiyasi bo‘lib xizmat qiladi;

ilk bor *C. subhirsutus* o‘simligining ekstrakti va individual alkaloidlarning insektitsid faolligi, *Callosobruchus maculatus* va *Acanthoscelides obtectus* don zararkunandalariga qarshi o‘rganilgan, natijada alkaloidlar yig‘indisi 10 mg/ml dozada ko‘rsatilgan don zararkunandalariga qarshi yuqori insektitsid faollik namoyon qilishi aniqlangan va laboratoriya sharoitida zararkunandalarni 95%-ni nobud bo‘lishi anganiqlanan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ajratib olingan birikmalar -IQ, ^1H , va ^{13}C YaMR spektroskopiya, mass-, xromato-mass-spektrometriya, rentgen tuzilish tahlili, xromatografik usullar, haqiqiy namunalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash kabi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalangan holda, shuningdek, YaMR spektral kattaliklarini taqqoslash, jahon adabiyotilarda nashr etilgan ma‘lumotlar, shuningdek, nufuzli xalqaro jurnallarda nashr etilgan ma‘lumotlar bilan isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maqsadli alkaloidlarni ajratib olish usullarini ishlab chiqish, ularning identifikatsiyasi, ular asosida birinchi marta yangi birikmalarni sintez qilish usullarini ishlab chiqish, hamda tabiiy birikmalar kimyosini *Convolvulus* turkumiga mansub, ba‘zi kam o‘rganilgan o‘simliklarning fitokimyoviy tarkibi, alkaloidlarning biologik faolligi va ularning sintetik analoglari to‘g‘risida yangi ma‘lumotlar bilan boyitish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, *C. subhirsutus* va *C. krauseanus* o‘simliklari kuyishga qarshi dermatologiyada tashqi foydalanish uchun

ishlab chiqilgan istiqbolli dori vositasi – 5%-li “Konvolvin va konvolamin aralashmasi linimenti” substansiyasini olish manbai bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Ushbu substansiyani tayyorlash bo‘yicha laboratoriya reglamenti tuzilgan.

Birinchi marta konvolvin alkaloidini mahalliy *Convolvulus subhirsutus* va *C. krauseanus* o‘simliklaridan ajratib olishning optimal usuli ishlab chiqilgan, uning asosida amaliy maqsadlar uchun bir qator sintezlar amalga oshirilgan va ba’zi birikmalarning biologik faolliklari aniqlangan.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining 2 ta patenti olingan: "Sitotoksik faollikka ega bo‘lgan vosita" IAP 05517 (28.12.2017 yil) va "Selektiv sitotoksik faollikka ega bo‘lgan vosita" IAP 05790 (15.03.2019 yil).

Alkaloidlar, ajratilgan asoslar va ularning asosida birinchi marta sintez qilingan yangi birikmalar yig‘indisining biologik sinovlari, ular orasida yuqori biologik faollikka ega moddalar aniqlandi, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi uchun istiqbolli vositalarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Frantsiyaning "*Latoxan*" firmasining xalqaro katalogiga kiritilgan va tibbiy-biologik sinovlar uchun bioreaktiv sifatida taklif qilingan ikkita tropan alkaloidlari (konvolvin va konvolamin) uchun *Convolvulus subhirsutus* o‘simligidan olish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. *C. subhirsutus*, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolcovii*, *C. arvensis* o‘simliklarining alkaloidlarini o‘rganish natijalari va konvolvin alkaloidini sintezlangan hosilalari asosida:

yettita sintez qilingan yangi birikmaning RTT natijalari (konvolvinni N-alkil hosilalari: N-geksil-, N-oktil-, N-nonil va N-karbamoil hosilalari: N-8-(fenilkarbamotioil)- va 8-(2-xlorofenil)karbamoil-konvolvinlar) xalqaro Kembridj markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (*The Cambridge Structural Database*, <https://www.ccdc.cam.>) va ularga tegishli identifikatsiya raqamlari (CCDC 1935318, 1935324, 2207408, 2207409, 2207410, 2296040 va 2296041) berilgan. Natijada, markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan yangi birikmalar haqidagi ma’lumotlar shunga o‘xshash birikmalarni sintez qilish va tavsiflash uchun foydalanish imkonini berdi;

o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, *C. subhirsutus* o‘simligining yer ustki qismi va ildizlaridan olingan alkaloidlar va ularning sintezlangan hosilalari yuqori sitotoksik faollik ko‘rsatgan natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazining: “Sitotoksik faollikka ega vosita” № IAP 05517 (12.28.2017 y.) va “Tanlab ta’sir etuvchi sitotoksik faollikka ega vosita” № IAP 05790 (03.15.2019 y.) 2ta ixtiroga patenti olingan. Natijada mahalliy o‘simlik alkaloidlari va ularning hosilalari asosida yangi, samarali sitotoksik dori vositasini yaratish imkonini bergan;

dissertatsiya tadqiqot ma’lumotlari VA-FA-O-009 “Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalarining sitotoksik, antibakterial, antifungal va antioksidant faolligini o‘rganish” fundamental loyihalarida (2017-2020 yy.) qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 11.01.2024 y. 4/1255-50 – son ma’lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Dissertatsiya ishining natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida e'lon qilingan va muhokamadan o'tgan.

Natijalarni nashr etish. Dissertatsiya materiallari asosida 22 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan 9 tasi, shu jumladan, xalqaro jurnallarda 6 ta maqola, xorijiy jurnalda 1 ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan MDH jurnallarida 2 ta maqola, 2 ta ixtiro uchun O'zR patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiy kirish, 4ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 sahifadan iborat bo'lib, 25 jadval, 7 sxema, 18 rasmni o'z ichiga olgan.

Muallif O'simlik moddolari kimyosi instituti fizik-kimyoviy tadqiqot, molekular genetika, dorivor va texnik o'simliklar biologiyasi laboratoriyalari hodimlariga ko'rsatgan amaliy yordamlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zRda fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy etish bo'yicha xulosa qilingan, nashr etilgan ishlar to'g'risidagi va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“O'rta Osiyo florasiining Convolvulaceae va Solanaceae oilasiga mansub o'simliklarning tropan alkaloidlari va ularning biologik faolligi” nomli dissertatsiyaning **birinchi bobida** dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, Convolvulaceae oilasining *Convolvulus* turkumi va Solanaceae oilasiga mansub o'simliklar, ulardan ajratilgan kimyoviy birikmalar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston hududida o'sadigan *Convolvulus* turkumiga mansub o'simliklarining alkaloidlarini o'rganish”** nomli ikkinchi bobida tadqiqot ob'yektlarining kimyoviy tarkibini o'rganish natijalari va konvolvin hosilalari sintez natijalari keltirilgan.

O'zbekiston hududida o'sadigan *Convolvulus* turkumiga mansub o'simliklarning alkaloidlarini tadqiq qilish

Convolvulaceae oilasining *Convolvulus* turkumiga mansub ba'zi o'simlik turlari yetarli darajada o'rganilmaganligi va ularni batafsil kimyoviy o'rganishni talab qildi. O'zR hududida o'sadigan *Convolvulus subhirsutus*, *C. krauseanus*, *C. fruticosus*, *C. lineatus*, *C. korolkovii* va *C. arvensis* turlari tarkibidagi alkaloidlarning tarkibini o'rganib chiqildi. Har bir o'simlik turidan alkaloidlar yig'indisi 85%-li etanol bilan maxsus usul orqali (gidromodul 1:5 nisbatda) ekstraksiya yo'li bilan olindi. Farg'ona viloyatida (Yordon qishlog'i, Nanay va Yortosh ko'llari yaqinida)

o'sadigan 3 ta joydan yig'ilgan *C. lineatus*da taxminan bir xil miqdorda alkaloidlar (0.054, 0.04 va 0.05%) mavjudligi ko'rsatildi. YuQX ma'lumotlariga ko'ra xloroform-metanol (1:3.5) sistemasida asosiy R_f qiymatiga ega bo'lgan bir xil, faqat intensivligi bilan farq qilgan dog'lar topilgan: R_f 0.10, 0.21, 0.41, 0.48, 0.58, 0.70. Olingan alkaloidlar yig'indisidan gidroxlorid shaklida s. har. 227-228°C bo'lgan asos **1** ajratib olingan. **1** ning UB spektri: λ_{max} 307 nm (2.36). IQ spektri (KBr, ν , cm^{-1}): 2950-2802, 2643, 1714 (C=O), 1465-1405, 1131, 1097. YaMR spektri (400 MGts, δ , m.u.): 2.88 (N-CH₃), 2.92 (N-CH₃); 1.62-2.50 (8H, m, 4CH₂-C), 3.50-3.65 (4H, m, 2CH₂-N); 2.98-3.12 (2H, m, 2CH-N). Mass-spektri, m/z: 224 (M⁺), 140, 126, 98, 84. Asos **1** ning olingan spektral ma'lumotlari ilk bor *C. erinaceus* o'simligidan ajratilgan adabiyotda ma'lum bo'lgan kuskigirin alkaloidiga mos keldi.

Buxoro viloyatida gullash davrida yig'ilgan *C. fruticosus* o'simligining yer ustki qismida 0.047% alkaloidlar mavjud bo'lib, ulardan kuskigirin alkaloidi atsetonda s.har. 204-206°C bo'lgan nitrat tuzi holida olindi, uning yodmetilati s.har. 242-244°C olingan. Alkaloidlarning yig'indisi qoldiqlarida tropin alkaloidi topildi. Shunday qilib, *C. fruticosus* tarkibida kuskigirin va tropin alkaloidlarining mavjudligi birinchi marta aniqlandi. Kuskigirin ajratilgan qoldiq benzol, xloroform, etilatsetat va n-butanolda eruvchanligiga ko'ra fraksiyalarga bo'lindi. Olingan fraksiyalarning xromato-mass-spektral tahlili o'tkazildi. Unga ko'ra, fraksiyalarda 14 ta birikma mavjudligi qayd etildi, benzol fraksiyasida 2,3-digidroksi-3-fenilpropion kislotasi, 2-formil benzoy kislotasi, 3,4-benzotropiliden va 9-metilnonadekan topildi. Xloroform fraksiyasi tarkibida 1-metilpirrolidin-2-on, 3-etil-4-metil-1H-pirol-2,5-dion, benzoy kislotasi amidi, shuningdek, fenol va sezilarli miqdorda 4-gidroksi-3-metoksiatsetofenon mavjud. n-Butanol fraksiyasining asosiy komponenti tropin alkaloidi, shuningdek, *C. fruticosus* tarkibida birinchi marta kashf etilgan siromazin birikma ham aniqlandi.

Toshkent viloyati (Oxongaron, Qizilchasoy) hududidan to'plangan *C. arvensis* o'simligining yer ustki qismidagi alkaloidlarning ekstraksiyasi va miqdoriy tarkibini aniqlash amalga oshirildi. Umumiy alkaloidlar yig'indisi 0.06% miqdorda bo'lib, ulardan kuskigirin alkaloidi birinchi marta ajratildi. Buxoro viloyati hududidan (Jingeldi) gullash davrida yig'ilgan *C. korolkovii* o'simligi yer ustki qismining alkaloidlari o'rganilib, ulardan 0.07% miqdorida alkaloidlar yig'indisi ajratildi va kuskigirin alkaloidi birinchi marta topildi.

Shunday qilib, *Convolvulus* turkumiga mansub o'simliklarning 4 ta turini o'rganish natijasida bu turlarda kam miqdorda alkaloidlar borligi aniqlandi, ular uchun umumiy va asosiy alkaloid kuskigirin bo'lishi ko'rsatildi.

***Convolvulus subhirsutus* o'simligining alkaloidlari.** *C. subhirsutus* o'simligining asosiy alkaloidlari antimikrob va antifungal faollikka ega bo'lgan konvolvin va konvolamin tropan asoslaridir. O'zbekistonda o'simlik xomashyosining yetarli zahirallari borligi, faol moddalar miqdori ishonchli tarzda yuqori (xomashyo quruq massasiga nisbatan 0.6% dan 4.5% gacha) bo'lishi ko'rsatildi.

Convolvulus turkumidagi o'simliklardan konvolvin va konvolamin alkaloidlarini olish uchun yuqorida qayd etilgan 2 ta turdagi (*C. subhirsutus* va *C. krauseanus*)

o‘simlik xomashyosidan ushbu maqsadli alkaloidlarni olishning samarali usulini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi.

***Convolvulus subhirsutus*ning alkaloidlari ekstraksiya jarayonini optimallashtirish.** Alkaloidlarni *C. subhirsutus* yer ustki qismidan va ildizlaridan ajratishning maqbul usulini ishlab chiqish uchun turli xil ekstraksiya usullari yordamida tajribalar o‘tkazildi: xona haroratida (matseratsiya), isitish orqali, Sokslet apparatida, ultratovush va mikroto‘lqinli ekstraksiya. Tajribalar uchun *C. subhirsutus* ning yer ustki qismi va ildizlari teng miqdorda (har biri 100.0 g) ekstraktiv moddalar va alkaloidlar yig‘indisi to‘liq ajratib olingan (ekstrakt – 85%-li etanol yordamida, gidromodul 1:5).

1-Jadval. ***Convolvulus subhirsutus* organlarida ekstraktiv moddalar (EM), alkaloidlar yig‘indisi (AY), konvolvin va konvolaminlarning turli usullar bilan chiqish miqdorlari**


Ekstraksiya usuli (vaqti, soati)	EM, %	AY, %	Konvolvin miqdori, %		Konvolamin miqdori, %	
			EM da	AY da	EM da	AY da
Yer ustki qismi						
1) Matseratsiya – 5 kun	0.50	0.29	10.55	53.20	5.70	26.02
2) Qizdirish (80-85°C, 6 s)	1.40	0.26	26.70	55.30	14.60	30.01
3) Sokslet apparatida (12 s)	0.60	0.22	18.80	55.20	9.50	28.70
4) Ul‘tratovushli ekstraksiya (4 s)	0.60	0.16	14.20	54.10	7.85	29.61
5) Mikroto‘lqinli ekstraksiya (1 s)	1.65	0.30	21.19	60.14	8.30	30.50

Ildiz

1) Matseratsiya – 10 kun	2.51	2.80	24.50	90.40	-	-
2) Qizdirish (80-85 °C, 6 s)	6.00	4.20	65.00	92.00	-	-
3) Sokslet apparatida (15 s)	5.30	3.80	25.10	90.45	-	-
4) Ul‘tratovushli ekstraksiya (5 s)	5.60	3.50	42.70	90.02	-	-
5) Mikroto‘lqinli ekstraksiya (1.5 s)	7.50	4.50	60.60	93.08	-	-

Olingan ma’lumotlardan (1-jadval) an’anaviy matseratsiya (1-usul) bilan ildizdan olishda jarayon uzoq (10 kun), maqsadli mahsulotlarning unumi qoniqarli (2.51% va 2.8%) ekanligini ko‘rish mumkin. 2-chi usuldan foydalanganda (isitish) ajratib olish vaqti kamayib (6 soat), moddalarning unumi sezilarli darajada oshgan (6.0% va 4.2%). Sokslet apparatida ekstraksiya vaqtida (3-usul, 15 soat) ekstraksiya

vaqti va umumiy alkaloidlarning (AY) unumi oshadi. Ultratovush yordamida ekstraksiya jarayonida (4-usul) ekstraktiv moddalar yig'indisining ekstraksiya vaqti 5 soat, alkaloidlar yig'indisining unumi (3.5%) yuqori bo'ldi. Mikroto'liqlik usul yordamida (5-usul) ekstraksiya vaqti keskin kamayadi (1.5 soat) va biologik faol moddalar (BFM) maksimal (7.5% va 4.5% gacha). Ildiz alkaloidlari yig'indisida konvolvinning eng yuqori miqdori (93%) qayd etilgan va yer ustki qismida mikroto'liqlik usul yordamida konvolvin va konvolaminning maksimal miqdori 90.64% bo'lishi kuzatilgan. Olingan natijalar turli xil ekstraksiya usullariga qaramay, konvolvin:konvolamin tarkibining nisbati deyarli o'zgarmaydi degan xulosaga kelish imkonini berdi. Ildizlardagi umumiy alkaloidlarning tarkibi 2.8%-4.5% gacha. Birinchi marta konvolamin alkaloidi ildizlarda aniqlanmaganligini, alkaloidlarning umumiy tarkibidagi konvolvin miqdori 75% dan yuqori va yer ustki qismida 50% dan yuqori ekanligini va undagi konvolamin ulushi 26-30% ni tashkil etishi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar mikroto'liqlik usulining aniq ustunligini ko'rsatdi.



1-Rasm. Konvolvin va konvolaminning aralashmasini YuSSX xromatogramasi

Olingan alkaloidlar va EM miqdori asosiy asoslar – konvolvin va konvolamin tarkibiga qarab tahlil qilindi va yuqori samarali yupqa qatlamli xromatografiya bilan aniqlandi va alkaloidlarning umumiy hajmidagi konvolvin va konvolamin miqdori YuSSX tomonidan aniqlandi (1-rasm). YuSSX tahliliga ko'ra ushlanish vaqti 11.248 bo'lgan signal konvolvinga, 15.523 bo'lgan cho'qqi esa – konvolaminga to'g'ri keladi, alkaloidlar yig'indisida ularning nisbati 2:1 ga mos keladi.

Turli usullar bilan olingan *C. krauseanus* alkaloidlari yig'indisining tarkibi.

C. krauseanus o'simligi *C. subhirsutus* bilan birga – konvolvin va konvolaminlar alkaloidlarning istiqbolli man'bai bo'lib, uning miqdori quruq yer ustki qismining 0.4-0.6% ni tashkil qiladi. *C. subhirsutus* ga o'xshash tajribalar *C. krauseanus* o'simlikni AY olishning turli usullari yordamida amalga oshirildi (2-jadval). Natijalar mikroto'liqlik usulining aniq ustunligini ko'rsatdi.

2-Jadval. *C. krauseanus*ning yer ustki qismida AY, konvolvin va konvolaminlarning turli usullar bilan chiqish miqdorlari


Ekstraksiya usuli	AY, %	Konvolvin, %	Konvolamin, %
1) Matseratsiya (8 kun)	0.40	50.00	20.21
2) Qizdirish 80-85°C (6 s)	0.48	53.12	23.34
3) Sokslet apparatida (12 s)	0.42	51.21	21.23

4) Ultratovush ekstraksiya (5 s)	0.58	54.31	24.15
5) Mikro to'liqli ekstraksiya(1.5 s)	0.63	58.11	26.24

C. krauseanusning yer ustki qismidagi alkaloidlar yig'indisini ajratish. Konvolvin va konvolaminni alkaloidlar yig'indisidan ajratilgandan so'ng, qoldiqni atseton bilan ishlash orqali s.har. 209-210°C bo'lgan kristallar ajratildi, u ma'lum fillal'bin alkaloidi bilan solishtirib va spektral ma'lumotlar (IQ, mass, PMR) asosida aniqlandi. Atsetonda erimaydigan qismidan s.har. 214-215°C bo'lgan alkaloid ajratildi va konvalidin bilan identifikatsiya qilindi. Konvolvin va konvolaminning qoldiqlari silikagel bilan ustunli xromatografiya yordamida ajratildi va alkaloidlar ekstraksiya benzini, xloroform, xloroform-metanol aralashmasi bilan ketma-ket ishlangan. Adabiyotda ma'lum alkaloid - konvolin bilan taqqoslangan va s.har. 184-185°C bo'lgan birikma benzin fraksiyalaridan ajratilgan. Keyingi benzin-xloroform fraksiyalarida s.har. 144-145°C bo'lgan alkaloid konvolitsin mavjudligi aniqlandi. Shunday qilib, O'zbekistonda o'sadigan *C. krauseanus* alkaloidlarini o'rganish natijasida birinchi marta adabiyotda mal'um bo'lgan 6 ta alkaloid ajratildi.

KONVOLVIN ASOSIDAGI MODIFIKATSIYALAR

Konvolvinni alkillash reaksiyalari. Alkilbromidlarning bir qator gomologlari bilan (**2a-g**) konvolvinni alkillash reaksiyalari o'tkazildi va uning N-(butil-, pentil-, geksil-, heptil-, oktil-, nonil-, detsil-) hosilalari olindi. Reaksiyalar umumiy alkillash usuli bo'yicha amalga oshirildi: reaksiya davomida ajralib chiqadigan HBr ni bog'lash uchun konvolvinga ma'lum bir erituvchida (atseton, benzol) K_2CO_3 qo'shildi. Reaksiya o'rtacha isitish bilan magnitli qurilmada doimiy aralashtirish bilan amalga oshirildi. Reaksiya jarayoni YuQX bilan nazorat qilib borildi. Hosil bo'lgan cho'kma ajratildi va qoldiq vakuum ostida quritildi. Unumlari 60-85% bo'lgan **3a-g** alkil galogenidlar sintez qilindi (1-sxema). Olingan **3a-g** birikmalarining tuzilishi IQ va YaMR spektroskopiyasi ma'lumotlari asosida isbotlandi. Hidrokslorid holidagi **3c**, **3e** va **3f** birikmalarning fazoviy tuzilishi rentgen tuzilish tahlili (RTT) bilan isbotlandi.




$$n = 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9$$

1-Sxema. Konvolvinning N-alkil hosilalarini sintezi


Gidrokslorid holidagi **3c**, **3e** va **3f** hosilalar RTT natijalari (1-rasm) **3c** kristallarida suv molekulari mavjudligini, **3e** va **3f** birikmalarda esa suv yo'qligini ko'rsatdi. **3c** gidroksloridda suv molekulari protonlangan azot atomi va xlor anioni bilan H-bog'lar orqali bog'langan. **3c**, **3e** va **3f** kristallarida alkaloid molekulari azot atomlari tomonidan protonlanadi, natijada H-C bog'lar protonlanmagan asosga nisbatan uzayadi. **3c**, **3e** va **3f** kristallarida C10 atomining konfiguratsiyasi saqlanib

qoladi – C10 holatidagi veratroiloksi guruhi tropan yadrosiga nisbatan α -aksial yo‘nalishga ega, bu adabiyot ma’lumotlariga mos keladi. Veratroiloksi guruhi tropan yadrosining simmetriya tekisligidan chiqqan bo‘lib, u H10-C10-O4-C9 burilish burchaklari bilan tavsiflanadi, ularning qiymatlari **3c**, **3e** va **3f** uchun mos ravishda 34° , 25° va 22° ga teng. Shuni ta’kidlash kerakki, adabiyotda ma’lum bo‘lgan ushbu birikmalar va analoglardagi karbonil guruhi har doim C10 dagi β -ekvatorial vodorod atomiga nisbatan *sin*-yo‘naltirilgan. **3c** kristallida alkil o‘rinbosar C17, C18 va C21 atomlarining holatlari tartibsiz bo‘lib, ular 0.78:0.22 nisbatda ikkita holatda joylashgan.



2-Rasm. **3c**, **3e** va **3f** birikmalarining fazoviy tuzilishi

2-Rasmda **3c** gidrokslorid molekulasini atomlarining holati ko‘rsatilgan. **3e** kristallida alkil guruxining C17 va C20 atomlarining tartibsizligi 0.70:0.30 nisbatida ham mavjud. Gidrokslorid **3f** da kristaldagi atomlarning tartibsizligi yanada murakkabroq. Metoksil guruhlari bilan benzol halqasi atomlarining pozitsiyalari saqlanib qoladi. Fazodagi molekulani N atomi va benzol yadrosi tekisligidan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan aylangan nortropan yadrosi sifatida ifodalanish mumkin. Erkin alkil fragmentida C17, C18, C20, C24 va C25 atomlari ikki holatda joylashgan. **3f** da atomlarning tartibsiz pozitsiyalarining nisbati taxminan 0.70:0.30 ni tashkil qiladi. 2-rasmda **3f** dagi atomlarning asosiy holati ko‘rsatilgan. **3c** kristallida azot atomining protoni va suv molekulasini o‘rtasida H-bog‘lanish kuzatiladi, o‘z navbatida suv molekulasini xlor anioni bilan H-bog‘ hosil qiladi. Ushbu molekulalararo o‘zaro ta’sirlar natijasida kristalda molekulalarning sentrosimmetrik dimer assotsiatlari hosil bo‘ladi (3-rasm). Tuzilishida simmetriya markazi tomonidan o‘zgartirilgan molekulalarda veratroiloksi guruhining aromatik joylari orasida π - π o‘zaro ta’sirlar kuzatiladi. Cl anioni va azot atomining NH protoni orasidagi bir xil H-bog‘lanishlari **3e** va **3f** kristall tuzilmalarida kuzatiladi.




3-Rasm. **3c** tuzilishida sentrosimmetrik dimerning shakllanishi

Birikmalarning tuzilishi SHELXS-97 dasturiy kompleks paketi yordamida to‘g‘ridan to‘g‘ri usullar bilan aniqlangan. Strukturalarni takomillashtirish uchun hisob-kitoblar SHELXL-97 dasturiga muvofiq amalga oshirildi. **3c**, **3e** va **3f** ning


RTT materiallari xalqaro Kembridj kristall tuzilish ma'lumotlari markazida saqlanadi va ularga tegishli identifikatsiya raqamlari olingan (CCDC 2207408, 2207409, 22074010).

Konvolvinni (1) mono- va dikarbon kislotalarning anhidridlari bilan atsillash reaksiyalari. 1 ning alifatik kislota (sirka, propion, moy) anhidridlari (2-7), aromatik (benzoy) va siklik anhidridlar (amber, glutarik) bilan o'zaro ta'siri o'rganildi. Bu holda, NH guruhining atsillanishini kutish mumkin, shuningdek, yangi O-atsil hosilalarini hosil qilish uchun 3,4-dimetoksibenzoy kislota qoldiqning faol bo'lish ehtimoli ham bor. Reaksiyalar suvsiz benzol eritmasida amalga oshirildi. Ma'lum bo'lishicha, sirka, propion, moy va benzoy kislota anhidridlari bilan atsillash xona haroratida sodir bo'ladi. Amber va glutarik anhidridlar qo'llanilganda reaksiyon aralashmani 70-80°C da qizdirish talab etiladi. Dastlabki to'rtta anhidrid ta'sirida N-atsetil-(8), N-propionil-(9), N-butirolil-(10), N-benzoil-(11) konvolvinlar olingan (2-sxema).



2-Sxema. Konvolvinning bir qator kislota anhidridlari bilan sintezi

Siklik kislota anhidridlari (6, 7) bilan olib borilgan reaksiyalar natijasida N-(karboksialkil)-konvolvinlar (12, 13) hosil bo'ldi. Reaksiyada hosil bo'lgan yangi karboksil guruhi keyingi reaksiyalarga kirishmaydi (3-sxema).



3-Sxema. Konvolvinni bir qator siklik kislota anhidridlari bilan sintezi


Sintez qilingan birikmalarning tuzilishi UB, IQ va 1N YaMR spektroskopiyasi ma'lumotlari yordamida isbotlangan. 8-13 birikmalarining UB spektrida: λ_{\max} 223, 275 nm da yutilish chiziqlari bilan birga λ_{\max} 295-297 nm sohada yutilish diapazoni namoyon bo'ladi. 8-13 birikmalarining IQ spektrida konvolvin NH guruhining yutilish chiziqlari 3387 sm^{-1} sohada yo'qoladi va 1622-1699 sm^{-1} sohalarda N-C=O fragmentining yutilish chiziqlari paydo bo'ladi.

8-13 birikmalarining ¹H YaMR spektrida aromatik halqa, metoksil va metilen guruhlari uglerodlarining kimyoviy siljish qiymatlari deyarli o'zgarmaydi, azot

atomiga bog'langan metin protonlari bundan mustasno (C-1, 5). Ular triplet va multiplet (**8-10**, **12**, **13** uchun) yoki kengaygan singlet (**11** uchun) shaklida paydo bo'ladi. C-1 va C-5 protonlarining kimyoviy siljish qiymatlarida **8-13** asil hosilalarida nisbatan keskin farq bor. Bu ma'lum omil – reaksiyalar natijasida hosil bo'lgan NCOR guruhining qo'shni protonlarga ta'siri (dezekranizatsiya) bilan izohlanadi.

